

"O'zkimyosanoat" AJ va "Dehqonobod kaliy zavodi" AJlarining rasmiy bayonoti

// 22.09.2023

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/82ce04cb-f7b0-40f5-a832-68ea3752ac5a>



Ijtimoiy tarmoqlar va telegram kanallarda e'lon qilingan Qashqadaryo viloyatida joylashgan "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ shlam yig'ish havzalaridan kislotali tuz aralashmasi sizib chiqayotganligi va bu holat korxonada atrofidagi chorva suv ichadigan buloqlarni zararlayotganligi haqida murojaat yuzasidan quyidagilarni ma'lum qilamiz.

Murojaat e'lon qilingandan so'ng Jamiyat mas'ul xodimlari tomonidan shu kunning o'zida joylarga chiqib vaziyat o'rganildi. Vaziyatni o'rganish jarayonida jamiyatga tegishli bo'lgan hududlarda shlam qoldiqlarining sizishi bilan bog'liq holatlar aniqlanmadi.

Jamiyatga qarashli shlam yig'ish havzalari Xitoyning "CITIC" kompaniyasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi qurilish me'yorlari qoidalariga muvofiq qurilgan va o'rnatilgan tartibda vakolatli idoralar tomonidan tashkil qilingan komissiyalar tomonidan qabul qilingan. Shuningdek, 1-bosqich doirasidagi shlam yig'ish havzasi to'lganligi sababli 2022-yil iyul oyida ishlatilishi to'xtatilgan. Hozirda 1-bosqichdan chiqadigan shlam qoldiqlari 2-bosqich doirasida qurilgan 2 ta maxsus shlam yig'ish havzalariga yo'naltirilmoqda.

Shlam yig'ish havzalaridan texnologik suvlar sizishini nazorat qilish maqsadida kuzatuv quduqlari burg'ulangan bo'lib, "Akkreditatsiya" markazining ma'qullash guvohnomasiga ega bo'lgan Ekoanalitika laboratoriyasi tomonidan muntazam ravishda kuzatuv quduqlarida to'plangan sizot suvlarining kimyoviy ekoanalitik laboratoriya tahlillari va monitoringi olib borilishi yo'lga qo'yilgan.

Hozirgi kunda korxonadagi barcha qurilma va inshootlar to'liq ishchi holatda va belgilangan ko'rsatkichlardan chetlashishsiz ishlamoqda. Shu bilan birga, Jamiyat tomonidan atrof-muhit muhofazasiga alohida e'tibor qaratilgan holatda, har qanday zararli tashlanmalarning salbiy ta'sirlarini oldini olish bo'yicha zarur chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Eslatib o'tamiz, yuqoridagi kabi murojaatlar bundan oldin ham kuzatilgan. Murojaatlar asosida vakolatli tashkilotlarning mutaxassislari tomonidan joylarga chiqqan holda real vaziyat o'rganilgan va namunalar olinib laboratoriya tekshiruvlari o'tkazilgan. Natijada murojaatlarda keltirilgan asossiz ayblovlar o'z isbotini topmagan.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish lozimki, "O'zkimyosanoat" AJ tomonidan tizim korxonalarida atrof-muhit muhofazasiga alohida e'tibor qaratish, tabiatni asrash, zamonaviy texnologiyalarni jorish qilgan holda, ishlab chiqarish jarayonlari natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararli ta'sirlarni keskin kamaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati